



4. Masalalarga ifodalar yozing.

- a) Bolalar hovuzi uchun 900 ta yumshoq kub sotib olindi. Ulardan 465 tasi ko'k, qolganlari yashil rangda. Qanday kublarni ko'proq: ko'kimi yoki yashilimi?
- b) Yugurishning bir turi – 800 metrga yugurish. 653 metrdan keyin sportchi oldinga otib oldi. U birinchi o'rinni saqlab qolishi uchun necha metr oldinda yugurishi kerak?



5. Olimpiya shtangasi o'qining vazni 20 kg. Shtanga uchun blinlar og'irligi rangiga qarab farq qiladi.




25 kg



20 kg



15 kg



10 kg

2 ta qizil disk, 2 ta ko'k, 1 ta sariq va 1 ta yashil disk o'rnatilgan shtanganing vazni qancha?



6. Rus shashkasida 64 ta katak, xalqaro shashkada esa 100 ta katak bo'ladi. Rus shashkasi kataklari xalqaro shashka kataklaridan necha kam?



7. Hisoblang.

$$700 - 267$$

$$500 - 285$$

$$400 - 182$$

$$900 - 774$$

$$600 - 358$$

$$300 - 192$$

60



8. Kurash musobaqasida 150 nafar sportchi ishtirok etdi. Birinchi turda 75 nafar sportchi o'yindan chiqdi. Ikkinchi turda birinchi turdagidan 37 nafar kam sportchi o'yindan chiqdi. Musobaqada qancha kurashchi ishtirokini davom ettirdi?